

AMIR TEMURNING BOSIB O'TGAN ULUG' YO'LI VA UNING
DAVLAT BOSHQARUVIDAGI FALSAFIY QARASHLARI

Kabilova Lola Hamrayevna

Siyob Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumi

E-mail: kabilovalola4@gmail.com

Anotatsiya: Ushbu maqolada Amir Temurning buyuk davlati, va davlatning tashkil etishdagi mashaqqatlar, Olib borilgan bunyodkorlik ishlari, Davlat ishlaridagi tutumi va vazifalari haqida ma'lumot olish mumkin.

Kalit so'zlar: Sayf ul-Oллоh, Sayf ud-din, Temur tuzuklari, Klavixo "Esdaliklar".

Men hayotim davomida beshta narsaga

*Qattiq e'tiqod qildim va hamisha ularga amal qildim,
ular quyidagilar Olloh, Tafakkur, Qilich, Imon, Kitob.*

Amir Temur

Baxtiyor jangchi , jahongir , sharqda qonunshunos bo'lish bilan birga , osiyoda kam uchraydigan taktik va strategik bilimlarni o'zida ifodalagan , Sohibqiron Amir Temur Ko'ragoniy 1336-yil 9-aprelda Kesh viloyati Xoja Ilg'or qishlig'i Amir Tarag'ay xonadonida tavallud topgan. O'smirlik va yoshligi Kesh viloyatida o'tdi. Yoshligidan Islom dini va urf odatlari bilan tarbiyalangan Sohibqiron o'z davrida "Sayf ul-olloh" (ollohning qilichi),"Sayf ud-din"(din qilichi)nomlari bilan ulug'lanib kelingan. Amir Temur o'z davrining tibbiyot , riyoziyot ,falakiyot , memorchilik , tarix ilmini , o'rgangan. Bundan tashqari Sohibqiron turk arab va fors xalqlarining tarixiy, diniy , dunyoviy bilimlari bilan bir qatorda ularning falsafiy bilimlarining murakkab jihatlarini puxta bilgan. Amir Temur siyosiy kurash maydoniga chiqqan paytda Movarounnahr siyosiy hayoti chuqur tanazzul davrida edi , chunki Movarounnahrda mo'g'ullar hukmronlik qilayotgan edi. Amir Temurning birinchi maqsadi mo'gular zulmiga barham berish va Movarounnahrda kuchli davlat tuzish edi. Uzoq olib borilgan yurishlar oqibatida bu maqsadga erishildi ya'ni Movarounnahr mo'g'ullar zulmidan ozod bo'ldi. Keyingi maqsad Movarounnahr Xuroson va Xorazmni birlashtirib markazlashgan davlat tuzish orzusi edi. Bu maqsadni amalga oshirishni avvalo ichki g'animg'larga qarshi kurashdan boshladi. Bundan tashqari davlatning chegaralarini mustahkamlash maqsadida o'ziga dushmanlik kayfiyatida bo'lgan o'lkalarga yurishlarni amalga oshirdi. Bu yurishlar tarixga uch yillik, besh yillik , yeti yillik urushlar nomi bilan kirdi. Amir Temur faqat osiyodagina emas balki Yevropa va Rusda ham nihoyatda mashhurdir. Masalan Fransiyada Sohibqironning Boyazid ustidan qozonilgan g'alabasidan "Yevropa xalaskori" degan ulug' nomga sazovor bo'ladi. Sohibqiron markazlashgan davlat poytaxti etib Samarqandni tanladi. Samarqandda ko'plab obodonchilik ishlarini olib boradi. Bo'g' - u rog'lar barpo etdi. Masjid , madrasa , maqbaralar qurdirdi: shulardan biri nabirasi Muhammad Sultonga atab Samarqandda maqbara qurdirgan. Maqbara o'n kunda qurib bitkazilgan. Bu maqbara hozirgi kunda "Go'ri Amir"nomi bilan mashhurdir. Sohibqiron Poytaxti Samarqand

atrofining obodonchilik ishlariga nihoyatda katta e`tibor bergan. Shuning uchun Samarqand atrofidagi qishloqlarni sharqning eng mashhur shaharlar nomi bilan ataydi. Amir Temur birgina Samarqandda emas balki butun mamlakatda balki bosib olingan bir qancha bosib olingan hududlarda ham bunyodkorlik ishlarini amalga oshirdi. Masalan Bag`dod, Darband, Baykalon hududlarini qayta tikladi va bunyodkor hukmdor degan nom oldi. Amir Temur davlatni boshqarishga nihoyatda katta e`tibor qaratgan. Mamlakatda yangi devon tuzildi. bu devondan tashqari har bir viloyatda devon deb ataluvchi boshqarma tuzdi bu boshqarma soliqlarni yig`ish , tartib saqlash , ijtimoiy binolar , bozorlar , hammomlar , yo`llar qurish sug`orish tarmoqlariga qarab turish va aholining xulqiy – axloqiy harakatlarini nazorat qilish bilan shug`ullangan. Davlat kirim chiqimlari hisobga olish qayd etish devonda aniq ko`rsatilgan. Amir Temurning olim – u fuzalolarga katta etibor bergan chunki ular davlatni boshqarishda va xalqning davlatga siyosatini o`rganishda ulardan boshqa insonlar yo`q edi shuning uchun Sohibqiron bunday bilim ahli bilan tez – tez uchrashuvlar o`tkazib turgan ular davlatni boshqarishdagi o`zlarining falsafiy qarashlarini bayon qilishgan , va Sohibqiron ularning ichidan o`zi uchun muhim deb bilgan qarorlarni qabul qilgan. Bu masalalar haqida “Temur tuziklari” asarida keltirilib o`tilgan , bundan tashqari bu asarda harbiy salohiyat to`g`risida ham to`xtalib o`tgan. Davlatni ishlarini boshqarishni doimo Islom va shariat hukmlari asosida olib borgan. Sohibqiron ta`kidlaydiki saltanatim martabasini qonun - qoidalar asosida saqladimki saltanatimga aralashib ziyon zahmat yetkazishga hech kimsaning qurbi yetmadi. Bundan ko`rinib turibdiki Sohibqiron davlarni bohqarishda har narsadan qonunni ustun bilgan. Brion fikricha Sohibqiron qurgan davlatning huquqiy asoslari qanchalik muhim ekanligini aytib o`tadi va Napoleonning joriy qilgan kodekslari bilan tenglashtiradi. Amir Temur qanchalik kuchli bo`lmasin urushdan oxirgi chora sifatida foydalangan va bu urushni muqaddas urush deb bilgan. Amir Temur salohiyati jahonga mashhur sarkarda o`z zamonasining qudratli hukmdori bo`lishi bilan birga uning harbiy nazariyasi va amaliy harbiy san`ati , taktika va strategiyasi , armiya tarkibining tuzilishi o`z davrining nodir mo`jizasi edi. Va bu o`z zamonida hali bironta hukmdor tomonidan amalga oshirilmagan qo`shinlarni yetti qism qo`llardan iborat guruhlariga ajratadi. Bu qo`llar jangda mustaqil bo`lib faqat qism boshlig`iga bo`ysunishgan. Qo`shinlarning yetti qism qo`llarga iboratligini Sharafiddin ali Yazdi ta`kidlab o`tgan. Jangga kirish taktikasini ham yaxshi yo`lga qo`ygan. Tartib intizom doimo qo`shinda birinchi o`rinda turgan. Sohibqironning harbiy mahorati , qo`shinlarni kerakli joyda tashkil etishi , dushmanga turli usullar orqali hujum qilishi, tabiatan yuksak aql zakovat egasi ekanligidan dalolat beradi. Amir Temur ta`kidlab o`tadiki.”Ming kishi bilan kerakasiz joyda bo`lgandan ko`ra o`n kishi bilan kerakli joyda bo`lgan yaxshi” bu o`sha hamma narsani diplomatik tarzda hal etish uchun zaruriy qoida desak mubolag`a bo`lmaydi. Amir Temurning o`sha davrdagi diplomatik aloqalari juda muhim darajada ediki o`sha paytdagi ziddiyatli munosabatda oqilona to`l qildi. Har bir davlat bu hoh Yevropa davlatlari bo`lsin hoh boshqa mamlakarlar har biri bilan yaxshi munosabat o`rnatdi. Lekin har doim Boyazid yoki To`xtamishxon Oltin o`rda xonligi hukmdori Amir Temurga yomon mazmundagi nomalarni yo`llagan va bu Sohibqironning ularga qarshi urush qilishga turtki bo`ldi. Va bular ustidan g`alaba qozondi va Yevropa va Rus davlatlari Hukmdorlari bilan

aloqalar o`rnatildi ayniqsa Frasiya qiroli va Ispaniya qiroli bilan elchilar almashinuvi kuchaydi. Buni o`sha mashhur Ispaniya elchi Klavixo yozib qoldirga

“Esdaliklar” “Temur qarorgohi” “Samarqandga sayohat” asarlaridan ham bilib olishimiz mumkin.

Xulosa qilib aytadigan bo`lsak Amir Temur va uning davlatimiz tarixidagi tutgan o`rni bir paytlar tanqid ostida edi. Sohibqiron haqida yaratilgan asarlar chiqarilmas yozgan odamlar esa tanqidga uchrardi. Bu narsalar qachondir tugashi kerak edi va ro`yobga chiqdi. Vatanimizning asriy orzusi Mustaqillikka erishdi. Shu vaqtdan boshlab Buyuk bobokalonlarimiz bilan bir qatorda Amir Temurning shaxsi va faoliyatini o`rganish va nomini abadiylashtirishga kirishildi. Davlatimiz tarixida tutgan o`rni g`oyatda buyukdir. O`sha paytda Sohibqironning dunyoga kelishini zamon talab qilayotgan edi. Sohibqironning davlat boshqaruvidagi qarashlarini bugungi kunda butun dunyo o`rganmoqda. Sababi o`sha tahlikali zamonda ulkan davlatni bitta markazdan turib boshqarishning o`zi dolzarb muammo edi. Sohibqiron bunga erishdi. Sohibqiron urushdan ko`ra diplomatic munosabatni yaxshi ko`rardi, bu haqda yuqorida ham aytib o`tganimizdek urushdan oxirgi chora sifatida foydalanardi. Bu narsani dunyo mamlakatlari endi o`z siyosatida amalga oshirar edi. Amir Temurning davlatni boshqarishdagi falsafiy qarashlari bugungi kun demokratik davlatlari aholisiga berilayotgan erkinlik bilan taqqoslasak bo`ladi chunki Sohibqiron o`sha davrda fuqarolarni hozirgiday erkinligini taminlay olgan. Sohibqiron shaxsidan vatanni sevish uni ko`z qorachig`iday asrash har qanday vaziyatda ham ortga chekinmaslik kabi hislatlar barq urib turadi. Prezidentimiz ta`biri bilan aytganda. “Amir Temurni shaxsini idrok etish tarixni idrik etish demakdir. Amir Temurni anglash o`zlikni anglashdan demakdir. Amir Temurni ulug`lash- tarix qariga chuqur ildiz otgan tomirlarimizga , ma`daniyatimizga , qudratimizga asoslanib buyuk kelajagimizga ishonchimizni mustahkamlash demakdir”. Zero bu insonning bunyodkorlik ishlarini bugun tarix unutmagan biz unutishga haqqimiz yo`q.

Foydalaniyalotgan Adabiyotlar:

1. Sharafiddin Ali Yazdiy “Zafarnoma”
2. Ziyonet.net
3. Muhammadjonov O`zbekiston tarixi
4. Lui Gonsales Klavixo “Esdaliklar”
5. Islom Karimovning 1998-yil Ziyolilar bilan uchrashuvida so`zlagan nutqidan.